



O'ZBEK TILI LEKSIKASIDA ISTORIZMLARNING YO'QOLIB BORISHI VA NEOLOGIZMLARNING PAYDO BO'LISH JARAYONI

Oqmirzayeva Umida Normurod qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti Urgut filiali talabasi

E-mail: oqmirzayevaumida@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15708894>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 14-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 21-Iyun 2025 yil

KEY WORDS

*Istorizmlar, arxaizm,
neologizmlar, leksik, frazeologik
arxaizmlar.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada til leksikasining eskirib, til sathidan chiqib ketishi va neologizmlarning lisoniy qatlamlarga kirib kelishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, badiiy asardan misollar keltirilib tahlil qilingan.

O'zbek tili leksikasi harakatchan, doim rivojlanib, sayqallanib, boyib yoki jamiyat a'zolari tomonidan yangilanib turish xususiyatiga ega. Tilning so'z boyliklari ma'lum jamiyat uchun xizmat qiladi, jamiyat a'zolari bilan birga yashaydi va ular foydalansagina o'z xususiyatini saqlab qoladi. Har bir sohaning til tizimida ma'lum bir o'zgarishlar ro'y berdi. Ba'zi sohalardagi so'zlar lug'at qatlamlaridagi boshqa yangi so'zlarga o'z joyini bo'shatib berdi. Ayrim so'zlar esa zamon yangilangan sayin o'z shakl-u shamoyilini yo'qotish bilan birga ma'nosidan ham ayrildi. Shuning uchun ham Leksikaning rivojlanishi ikki yo'nalishda boradi. Bir tomondan, leksika o'z taraqqiyoti jarayonida jamiyat taqqiyotida yuz bergan tarixiy o'zgarishlarni, yangiliklarni ifodalash orqali boyiydi. Leksika boshqa tillarda qabul qilingan so'zlar, yaratilgan yangi so'zlar, yangicha atamalar, yangicha iboralar so'zlarning o'z ma'nolarini o'zgartirishlari hisobiga boyiydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Bunday yangilanish va eskirish jarayonlari o'zbek tili leksikasining o'rganish obyektlaridan biri sanaladi. Eskirish va yangilanish jarayonlari o'zining ma'lum turlariga ega. Ular: leksik istorizm, leksik arxaizm va leksik neologizm birliklaridir.

Bilamizki, leksik istorizmlar tarixiy voqea-hodisalarni ifodalaydigan so'zlardir. Ular "Tarixiy so'zlar" deb ham ataladi. Shubhasiz, turli davrda turli so'zlar va atamalardan foydalanilgan. Lekin bugungi kunda ushbu atamalar o'z ma'no va shaklini butunlay yo'qotgan. Aynan bu so'zlar istorizmlar sanaladi. Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanidan olingan misollar:

Amir - saroy lavozimlaridan biri. Kimlarning vositasi bilandir mazkur go'zal kanizning ta'rifi Buxoro amiri-amir Bahodir-(Botur) xong'a yetib ul ham ilgari haligi kanizga g'oyibona oshiq bo'lgan edi. (Amir Umarxonning kanizi, 3-bet).

Darxonlik-ozodlik, ozod qilish. Kambag'alning kengash so'rab kelishi muhim ishlar ustida, masalan: bir bekning qilg'an zulmi

ustidan shikoyat, juda kambag'al bo'lg'ani uchun soliqlardan darxonlik so'rash va hokazo. (24. Shoirning siri, 50-bet).

Kaniz-cho'ri, xizmatkor ayol. Amir Umar oxir umrida o'z saroyidagi yosh kanizlardan biriga muhabbat qo'yadir.(2. Amir Umarxonning kanizi, 3-bet).

Qo'rchi-O'rta asrlarda Turkiston va ayrim Sharq davlatlarida: turkiy qabilalarning e'tiborli va ishonchli kishilaridan saroyda tuzilgan maxsus harbiy qism jangchisi (hukmdorni va nufuzli a'yonlarni qo'riqlagan).. Haramga kirish huquqidan mahrum qo'rchilar tuni bilan tashqarida qo'riqchilik qilgan edilar. (Axxi.2.Ajalga davo yo'q, 23-bet).

Qurur-yuz lak, ya'ni o'n million. Yuz qurur-bir arb. (Agra.2. Yo hayot, yo mamot, 414-bet).

Yog'iy-yov, dushman. Yog'iyning ming-ming askari bor. (Quva.1. Qil ustida turgan taqdirlar, 3-bet).

Choshnagir-podshohning dasturxoniga qaraydigan xodima. Tashqari eshikdan ta'zim qilib kirgan choshnagir ayol ovozi qo'rquv bilan pasaytirib xabar berdi. (Axxi.1. Amalga davo yo'q, 19-bet).

Ulamo-shariat qonunlarini, diniy bilimlarni mukammal biladigan mulla. Solih mahdum sinfi jihatdan ulamo oilasiga mansub... (2. Amir Umarxonning kanizi, 3-bet).

She'riy ta'rix-maxsus bir janr bo'lib, harflaridan abjad hisobi bilan ma'lum yil va oy kelib chiqadi. Boburning Hisordagi g'alabasi sharafiga yozilgan she'riy ta'rixlar, uning Samarqandga kelishini qutlaydigan satrlar xattotlar tomonidan yirik-yirik harflar bilan oq ipak matolarga yozilib, yo'l bo'ylariga do'kon tepalariga, qo'rg'on ichining ko'zga ko'rinarli joylariga osib qo'yilgan edi. (Qunduz.Samarqand.5. Ikki qilich orasida, 329-bet).

3. Harbiy tushunchalar nomlari: shamshir, sovut, sadoq (o'qdon), darvoza, navkar.

Dubulg'a-Boshni tig' yoki o'qdan (shuningdek, boshqa xil zarbalardan) saqlash uchun temir yoki po'latdan ishlangan bosh kiyim. Faqat arkka yaqinlashganda, chap tomonda ko'ringan ulkan obidaning Amir Temur maqbarasi ekanini jangchining dubulg'asiga o'xshash gumbazning afsonaviy go'zal taram-taramlaridan tanidi. (Samarqand.1. Zafar va kulfat, 96-bet).

Cho'g'ollar-xon askarlarining bir turi. Xudoyor cho'g'ollari qishloqqa chiqib, Nazmining otasini siqqanlar, urg'anlar... (31. Qirq qizlar, 72-bet).

Natijalar

Lug'aviy birlik biror jihatdan eskirib, o'z o'rniga boshqa lug'aviy birlikka bo'shata borishi natijasida arxaizm paydo bo'ladi. Arxaizm-so'z monosemantik so'zning eskirishi natijasida, arxaizm ma'no esa polisemantik so'zga xos leksik ma'nolardan birining eskirishi natijasi yuzaga keladi. Har ikki turdagi arxaizmning voqe bo'lishi shu tilning o'z taraqqiyot yo'li bilan bog'liq. Hattoki, so'zning shakli, ma'nosi ham o'zgarmay faqatgina talaffuzi eskirishi ham mumkin. Bu esa fonetik arxaizmni vujudga keltiradi. Toshkent – O'zbekiston viloyatlaridan biri. Tarixda "Toshkand" tarzida talaffuz qilingan. Noshvoti – nokning bir navi, avval esa "noshpoti" ko'rinishida bo'lgan. "Andijonning noshpotisidan yaxshiroq noshpoti bo'lmas". ("Boburnoma" dan) Fonetik arxaizm ko'proq olmoshlarda o'z aksini topadi: u-ul, bu-bul, shu-shul, o'sha-o'shal, ular-alar, menda-banda.

"Keltursa yuz baloni o'shal bevafo manga,

Kelsun, agar yuzumni evursam, balo manga". (Bobur)

Frazeologik arxaizm ko'p emas, hozirgi o'zbek tilida bunday arxaizmga "Dasti alif-lom qilib", "Gardanini ham qilib"; "Yoqasini chok etmoq" kabi iboralarni ko'rsatish mumkin. Arxaizm iborani arxaizm qatnashgan iboradan farqlash kerak. Arxaizmning qatnashuvi hali iboraning arxaizm ekanidan darak bermaydi. Masalan, "Lom-mim demaslik" iborasi tarkibidagi arxaizm qatnashgan, shunga qaramay bu iboraning o'zi arxaizm emas. Lug'aviy birliklarning eski bo'lishi boshqa-yu, eskilik bo'yog'i bor bo'lishi boshqa. Arxaizm hozirgi tilning lug'atiga xos birlik hisoblanadi. Boshqa lug'aviy birliklardan eskilik bo'yog'i borligi bilan ajralib turadi. Hozir ishlatilishdan umuman chiqib ketgan, til taraqqiyotining tarixiy bosqichlariga xos bo'lgan lug'aviy birliklarni bugungi kun nuqtai nazaridan arxaizm deb baholash mumkin emas. Bular o'tmish lug'aviy birliklaridir. Bularning arxaizmligi yoki arxaizm emasligi til tarixining har bir bosqichida o'sha davrga nisbatan belgilanadi. Masalan, ulus («xalq»), aqcha («pul») kabi so'zlar, nuqta so'zning «o'rin», «tomon» ma'nosini o'tmish lug'atiga xos birlikdir. Bunday lug'aviy birliklarga klassik adabiyotda va o'tmish tarixini bayon etuvchi hozirgi asarlarda ko'p uchraydi. Bular o'sha davr muhitini aks ettirish uchun xizmat qiladi, ba'zi hollardagina stilistik maqsadda ishlatilgan.

Muhokama

Neologizm (yunoncha neo – yangi, logos – so'z) – bu muayyan til lug'at tarkibiga yangi kirib kelgan yoki yaqinda shakllangan so'z, ibora yoki atamalaridir. Ular odatda yangi ixtiro, hodisa, tushuncha yoki ehtiyoj tufayli paydo bo'ladi. Neologizmlar tabiiy ravishda har bir tilning rivojlanish jarayonida yuzaga keladi va lug'at tarkibining doimiy yangilanib borishini ta'minlaydi. Bunday so'zlar leksik qatlamning boyishiga xizmat qiladi. Neologizmlar, dastlab, qator olimlar, tilshunolar chetdan kirib kelayotgan so'zlarning o'zbekcha muqobillarini izlab ko'rgan, mavjudlarini o'zbekchalashtirgan. Ayrimlarining muqobillari esa nutqiy qulaylikka ega bo'lmaganligi sabab o'zgartirilmagan. Masalan, radio – ovoznigor, samolyot – uchoq, aeroport – tayyoragoh, aftobus – ko'p kursi, mamlakat – respublika singari so'zlar o'z muqobilini rad etib, yangi so'z (neologizm)lar bilan atalgan.

Neologizm atamasiga olimlar turlicha ta'rif berishgan. R. Majidova, I. Yo'ldoshev, O'. Sharipov o'zlarining "Tilshunoslik nazariyasi asoslari" darsligida quyidagicha ta'rif beradi: "Neologizm – yangi narsa, yangi tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan, hali odatdagi lug'aviy birlikka aylanib ketmagan so'z yoki iboralardir."

H. Jamolxonovning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida quyidagicha ta'riflangan: "Leksik neologizmlar tilda yangi paydo bo'lgan va yangilik bo'yog'ini yo'qotmagan so'zlar: internet, marketing, litsenziya va b. " Yana shu kabi tilshunos olimlar o'z ilmiy izlanishlarida neologizmlarni shunday ta'riflaydi: " Yangi leksemalar – tilda endi paydo bo'lgan va yangilik bo'yog'i sezilib turgan so'z: audit, market, test, internet, kabi. Ular fanda neologizm deb ham yuritiladi.

Ba'zan shunday holatga ham duch kelamizki, tilimizda o'z muqobili bor, lekin ularni qo'llamaslik, chetdan kirgan so'zlardan me'yordan ortiq foydalanish, ularni iste'molga butunlay olib kirish ham uchraydi. Masalan: Byudjet-hamyon, mablag';

Kargo – yuk puli;

Avtomat-o'zi harakatlanuvchi;

Lider – yetaklovchi, boshlovchi;

Auditoriya-tinglash joyi;

Blok-to'siq;

Assortiment-terma, yig'ma, to'plam, saralangan
Tutor-o'qituvchi, tarbiyachi

Xulosa

Zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalangan holda neologizmlarni chuqur o'rganish va ularni til tizimiga moslashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Negaki bugungi kunda nafaqat yoshlarning ko'pchiligi turli xil ingliz va rus tillarini qo'shib gapirishadi, balki e'lon taxtalarda ham bu holatni ko'rish mumkin. Masalan, "Sartarosh" so'zi o'rniga "Barber" ni yozib qo'yishadi. Bu esa til qatlamidagi so'zlarning arxaizmlashishiga sabab bo'ladi. "Til bor — el bor, til yo'q — el yo'q"- deganlaridek, so'z qo'llashda e'tiborli bo'lish lozim, toki tilimiz o'z taraqqiyot cho'qqisiga erishsin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Tilshunoslik asoslari: I. Yo'ldoshev, S. Muhamedova, O. Sharipov, R. Majidova. Toshkent – 2013.
2. Hozirgi o'zbek tili: Baxtiyor Mengliyev. "Excellent Publication" – Toshkent. 2020.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili: H. jamolxonov. Toshkent – "Talqin". 2005.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
5. Berdialiyev Abduvali, Ermatov Ixtiyor. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya) Darslik. – T: «TURON-IQBOL» nashriyoti, 2021.

INNOVATIVE
ACADEMY